



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 200 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayeich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahridinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	



XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR

Choriev Makhmayokub

University of Business and Science, Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi:
ORCID: 0009-0002-9210-9320

Karimov Mamurbek

University of Business and Science, Iqtisodiyot kafedrası dotsenti v.b. PhD:
ORCID: 0000-0001-5707-1123

Xamrayev Olimjon

University of Business and Science, Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi,
ORCID: 0000-0001-6699-4456

Urazov Mansur

University of Business and Science, Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi,
ORCID: 0009-0006-4716-7790

Annotatsiya: Ushbu maqolada xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelishi, jamiyatdagi roli va uni samarali qisqartirish bilan bog'liq muammolar va amalga oshirilayotgan islohotlarini, O'zbekiston misolida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar tahlil qilinib, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini o'rganiladi. Shuningdek, soliq tizimidagi islohotlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlarning natijalari ham muhokama qilinadi. Germaniya va Janubiy Koreyaning xufyona iqtisodiyotni qisqartirish borasidagi yondashuvlari O'zbekiston tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi, ularning samaradorligi baholanadi va xufyona iqtisodiyotni kamaytirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha kerakli takliflar ishlab chiqilinadi.

Kalit so'zlar: Xufyona (yashirin) iqtisodiyot, iqtisodiy siyosat, norasmiy iqtisodiyot, rasmiy iqtisodiyot, soliq tushumlari, raqamli to'lovlar, naqdsiz to'lovlar.

Abstract: This article examines the emergence of the shadow economy, its role in society, and the problems associated with its effective reduction, as well as the reforms being implemented, using Uzbekistan as an example. During the research, the main factors leading to the shadow economy are analyzed, and its economic and social consequences are studied. Additionally, the results of measures such as tax system reforms, the introduction of digital technologies, and support for small businesses are discussed. The approaches of Germany and South Korea in reducing the shadow economy will be compared with Uzbekistan's experience, their effectiveness will be assessed, and necessary recommendations will be developed for reducing the shadow economy and ensuring sustainable economic development.

Key words: shadow (hidden) economy, economic policy, informal economy, official economy, tax revenues, digital payments, non-cash payments.

Аннотация: в данной статье рассматриваются возникновение теневой экономики, её роль в обществе и проблемы, связанные с её эффективным сокращением, а также проводимые реформы на примере Узбекистана. В ходе исследования анализируются основные факторы, приводящие к возникновению теневой экономики, а также её экономические и социальные последствия. Также обсуждаются результаты таких мероприятий, как реформы налоговой системы, внедрение цифровых технологий, поддержка малого бизнеса. Оцениваются подходы Германии и Южной Кореи по сокращению теневой экономики, проводится сравнительный анализ с опытом Узбекистана, их эффективность оценивается, и разрабатываются необходимые предложения для сокращения теневой экономики и обеспечения устойчивого экономического развития.

Ключевые слова: теневая (скрытая) экономика, экономическая политика, неформальная экономика, официальная экономика, налоговые поступления, цифровые платежи, безналичные платежи.



KIRISH

Barchamizga ma'lumki, so'nggi yillarda jahon miqyosida xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning oldini olish masalasi davlatlarning iqtisodiy siyosatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, soliq tizimini samarali yuritish ushbu jarayondagi asosiy mezonlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xufyona iqtisodiyotning salbiy oqibatlari orasida davlat byudjetiga soliq tushumlarining kamayishi, iqtisodiy barqarorlikning zaiflashishi va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanishi kabi omillar alohida ahamiyatga ega. Bunga misol sifatida, BMTning Savdo va Taraqqiyot konferensiyasi statistik ma'lumotlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda har yili qariyb 100 milliard AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy resurslar kompaniyalar va shaxslar tomonidan rasmiy iqtisodiyotdan tashqarida boshqa hududlarga o'tkaziladi. Bu esa milliy iqtisodiyot doirasida soliqlardan qochish holatlari keng tarqalganligini ko'rsatadi.¹ Ushbu holatlar xufyona iqtisodiyotni jilovlashda fiskal siyosati instrumentlaridan samarali foydalanish muhimligini e'tirof etib kelmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham xufyona iqtisodiyot muammosi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelyapti. Vaholanki, davlatimiz tomonidan ushbu muammoni bartaraf etishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilyapti², xususan, soliq tizimidagi modernizatsiya nafaqat soliqlarni samarali undirishni optimallashtiryapti balki bu o'z navbatida biznes muhitida ortiqcha byurokratik jarayonlarni bartaraf etyapti. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish, noqonuniy moliyaviy oqimlarni kamaytirish va soliq boshqaruvining shaffofligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar davom etmoqda³.

Mazkur maqola o'z oldiga quyidagi vazifalarni belgilaydi: xufyona iqtisodiyotning kamayishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, xalqaro tajriba asosida samarali soliq instrumentlarini aniqlash va ularni milliy iqtisodiyotga moslashtirish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning qay darajada natijadorligi baholanadi va o'z navbatida, istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Har qanday davlat uchun xufyona iqtisodiyot mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va davlat byudjetining barqarorligi uchun jiddiy tahdiddir. Mamlakatimizda, so'nggi yillarda xufyona iqtisodiyotni kamaytirish va iqtisodiy xavfsizlikni kuchaytirish bo'yicha qator jiddiy qadamlar amalga oshirilmogda, ularning samarasi va isloh qilinishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan fikr yuritamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashirin iqtisodiyotning ko'lami mamlakatlarning soliq siyosati, institutsional sifati va texnologik rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Schneider and Enste (2000) yashirin iqtisodiyot davlatning tartibga solishining ortiqcha yukidan qochish natijasida vujudga kelishini ta'kidlab o'tgan. OECD (2018) tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, soliq yuki ozaytirilgan va soliq to'lovchilar uchun qulay muhit yaratilgan davlatlarda yashirin iqtisodiyotning ulushi nisbatan past bo'ladi. IMF (2020) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli soliq tizimlari, xususan, elektron hisob-fakturalar va blokcheyn texnologiyalari orqali yashirin iqtisodiyotni sezilarli kamaytirish mumkin.

Krstic, G and Schneider, F. (2015) Germaniya va Janubiy Koreya tajribalarida naqd pulsiz to'lov tizimlari va avtomatlashtirilgan soliq monitoringi orqali norasmiy iqtisodiyotning ulushi kamaygani kuzatilgan. Janubiy Koreya esa sun'iy intellekt yordamida soliqlardan qochish holatlarini aniqlash tizimini muvaffaqiyatli yo'lga qo'ydi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham yashirin faoliyatning sezilarli ulushi mavjud bo'lib, Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi (2022) hisobotida bu ko'rsatkich 30-35% atrofida ekanligi qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi (2023) hisob-kitoblariga ko'ra, so'nggi yillarda qabul qilingan soliq islohotlari, jumladan, QQS stavkasining tushirilishi va elektron hisob-fakturalarning joriy etilishi natijasida soliq tushumlari oshdi. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy Rivojlanish va Qashshoqlikni Qisqartirish Vazirligi (2023) ma'lumotlariga ko'ra, onlayn kassalar va raqamli tranzaksiya monitoringi xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda samarali vositalardan biri bo'ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida monografik kuzatuv, iqtisodiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, mantiqiy va ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, ekspert baholash usullari kabi usullardan foydalanilgan.

1 UNCTAD. (2020). Illicit Financial Flows: Impact on Developing Countries. United Nations Conference on Trade and Development. https://unctad.org/system/files/official-document/aldcafrica2020_en.pdf

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni-PF-6098 (2020). Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-5073459>

3 Xodjiev B. (2022). "O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ko'lami: baholash natijalari va uni qisqartirish yo'llari." Makroiqtisodiy va mint-aqaviy tadqiqotlar instituti. Retrieved from https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/yashirin_iqtisodiyot



TAHLIL VA NATIJALAR

Xufyona iqtisodiyot jamiyat tizimining ajralmas qismi bo'lib, u barcha rivojlanish bosqichlarida mavjud bo'lib, u batamom yo'q bo'lib ketmaydi. Uning asosiy xususiyatlari tarixiy sharoitlar, iqtisodiy rivojlanish darajasi, an'analar va davlat tuzilishiga bog'liq. Yashirin iqtisodiy jarayonlarga samarali qarshi turish uchun ularning sabablarini, rivojlanish omillarini va namoyon bo'lish shakllarini aniqlash zarur. Xufyona iqtisodiyot mohiyatini o'rganish va uni cheklash yo'llarini topish muhim ilmiy va amaliy masaladir.

Xufyona iqtisodiyot - davlat nazorati va hisobidan tashqarida rivojlanadigan yashirin iqtisodiy faoliyatdir. Xufyona iqtisodiyot atamasi 1970-yilda qo'llanila boshlangan, biroq bu hodisa ancha oldin ham mavjud bo'lgan.⁴ U qonuniy iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ishchi kuchi va infratuzilma kabi davlat resurslaridan foydalanadi, ammo soliqlardan qochadi. Xufyona iqtisodiyotning mohiyatini tushunishimiz, uning paydo bo'lish shart-sharoitlarini aniqlash va samarali kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqishga ancha qo'l keladi. Bu holat rasmiy statistika tomonidan qayd etilmaydi, lekin ayrim shaxslar va guruhlar uchun ayni muddao bo'lib xizmat qiladi.

Xufyona iqtisodiyot davlatning to'laqonli rivojlanishiga to'sqinlik qilib, unga katta zarar yetkazadi. Barqaror iqtisodiy o'sish uchun noqonuniy faoliyat turlarini aniqlash va oldini olish muhimdir. Yashirin iqtisodiyot ko'p qirrali va murakkab tushunchadir. U ko'pincha jinoyatchilik bilan bog'liq deb qaralsa-da, barcha hisobga olinmagan iqtisodiy faoliyat ham jinoyat deb hisoblanmaydi. Uning eng asosiy ko'zga tashlanadigan jihati – davlat nazoratidan xufya tutilishi va nazorat qilinmaydigan daromadlar olinishidir. Shuning uchun, xufyona iqtisodiyotga qarshi kurash kompleks yondashuv va chuqur monitoring qilishni talab etadi. Ushbu turdagi iqtisodiyot yuzaga kelishiga quyidagi bir nechta omillar sabab bo'ladi:

Birinchi omil bu hukumat tomonidan yuqori soliq stavkalari va soliq yukidir. Soliq stavkalarining o'sishi yuridik va jismoniy shaxslarni soliqlardan qochishga undaydi. Bu, ayniqsa, kichik biznes vakillari va norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar orasida keng tarqalgan. Masalan, "2019-yilgacha O'zbekistonda ko'plab kichik biznes vakillari patent asosida ishlashga moyilligi yetarli darajada bo'lgan, chunki bu ularga qat'iy belgilangan soliq to'lash va murakkab hisobot berish jarayonlaridan qochishga imkon bergan. Biroq, keyingi yillarda ayrim sohalar uchun patent tizimining bekor qilinishi ayrim tadbirkorlarni yashirin iqtisodiyotga o'tishga undadi".⁵

Mamlakatimiz iqtisodiyotida norasmiy sektor salmoqli o'ringa ega. Xususan, qurilish, chakana savdo, xizmat ko'rsatish sohalarida ko'plab ishchilar rasmiy ravishda ishga olinmaydi yoki oylik daromdlari atayin o'zaro kelishilgan holda pasaytirib qayd etiladi. Bunga sabab sifatida rasmiy ish beruvchilarning yuqori daromad solig'i va ijtimoiy to'lovlardan iloji boricha qochishga urinishini misol sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

Byurokratik to'siqlar, ortiqcha litsenziyalash va boshqa ruxsat berish jarayonlari tadbirkorlarning rasmiy iqtisodiy faoliyatdan chetlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik subyektlari rasmiy jarayonlarning murakkabligi va uzoq davom etishi tufayli noqonuniy yo'llar orqali faoliyat yuritishga moyillik bildiradilar. Bundan tashqari, davlat boshqaruv tizimining zaifligi va korrupsiya yashirin iqtisodiyot rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Davlat organlaridagi korrupsiya rasmiy iqtisodiy faoliyatni yuritishni qiyinlashtiradi, chunki tadbirkorlar qonuniy doirada qolish uchun qo'shimcha xarajatlar — pora berish yoki boshqa noqonuniy to'lovlarni amalga oshirishga majbur bo'lishadi. Natijada, ko'plab tadbirkorlar yashirin iqtisodiyotga o'tishni afzal ko'radilar, bu esa davlat byudjetiga tushumlarning kamayishiga va iqtisodiyotni tartibga solish qiyinlashishiga olib keladi.

Yashirin iqtisodiyotning ko'lamini pasaytirish uchun davlat tomonidan patent va litsenziya berish jarayonlarini soddalashtirish, korrupsiyaga qarshi qat'iy choralar ko'rish va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish kerak. Shu bilan birga, soliqqa tortish tizimini optimallashtirish va davlat xizmatlarining shaffofligini oshirish tadbirkorlarni rasmiy iqtisodiy faoliyat yuritishga rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatda yashirin iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati 505,6 trillion so'mni tashkil etib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qariyb 35% ga teng bo'ldi.⁶ Norasmiy iqtisodiyot, asosan, rasmiy ro'yxatdan o'tmagan tadbirkorlik faoliyati, nisbatan kichik hajmdagi savdo-sotiq va xizmatlar sohasida namoyon bo'lib, umumiy iqtisodiyotning muhim qismini tashkil etadi. Yashirin iqtisodiyot esa soliqdan qochish, noqonuniy faoliyat yuritish yoki mehnat qonunchiligidan chetlashish bilan bog'liq bo'lib, u ham davlatning iqtisodiy boshqaruv mexanizmlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Sohalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, yashirin iqtisodiyotning eng katta ulushi qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik tarmoqlariga to'g'ri kelar ekan. Buning asosiy sabablari sifatida ushbu sohalarida kichik

4 Krstic, G., & Schneider, F. (2015). The Shadow Economy and Its Impact on National Competitiveness: The Case of European states. *Journal of Competitiveness*, 7(3), 3-23. Retrieved from <https://sciendo.com/pdf/10.2478/v10033-009-0003-6>

5 Statistika qo'mitasi. (2019). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni. Statistika qo'mitasi. <https://www.stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/qomita-yangiliklar-2019/1245-7502-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlik-sub-ektlarining-mamlakat-iqtisodiyotida-tutgan-o-rni>

6 "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2024-yil yanvar-dekabr)". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. https://stat.uz/img/talil-2024-jil-yanvar-dekabr-lotin_p24183.pdf



dehqon xo'jaliklari va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning keng tarqalganligi, rasmiy mehnat shartnomalarining kamligi va naqd pul aylanmasining yuqori darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunday tendensiya davlat tomonidan iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish, soliq yukining osonlashtirilishi va ishbilarmonlik muhiti shaffofligini oshirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba: Germaniya Federativ Respublikasi tajribasi

Jahon tajribasida yashirin iqtisodiyot bilan smarali kurashib, salmoqli natijalarga erishgan davlatlardan biri bu Germaniya Federativ Respublikasi hisoblanadi. Germaniya yashirin iqtisodiyotni qisqartirish uchun soliq yuklamalarini kamaytirish, raqamli texnologiyalar orqali nazoratni kuchaytirish va mehnat bozorini isloh qilish kabi chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirdi, bu esa rasmiy iqtisodiyotning kengayishiga olib keldi.

Germaniyaning muvaffaqiyatiga sabab bo'lgan asosiy omillardan biri soliq va ijtimoiy ta'minot yuklamalarini kamaytirish edi. Yuqori soliq stavkalari va ijtimoiy ta'minot badallari ko'pincha biznes va ishchilarni norasmiy sektorga chiqishga majbur qiladi. Bunga qarshi kurashish maqsadida Germaniya kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun mo'tadil soliq pasaytirilishi va ijtimoiy ta'minot badallarining kamaytirilishini joriy etdi. Masalan, Germaniyada korporativ soliq stavkasi taxminan 15% ni tashkil etadigan bo'lsa, mahalliy soliqlar esa 14-17% oralig'ida. QQS stavkasi 19% bo'lib, ayrim mahsulotlar uchun 7% lik pasaytirilgan stavka qo'llaniladi. Shuningdek, UG (Unternehmergesellschaft) kabi soddalashtirilgan huquqiy tuzilmalarning joriy etilishi kichik biznes uchun qonuniy faoliyat yuritishni osonlashtirdi va ularni norasmiy iqtisodiyotdan chiqishga undadi.⁷ Soliq tizimining soddalashtirilishi ham bizneslarning qonuniy faoliyat yuritishini osonlashtirdi va ularni norasmiy iqtisodiyotdan chiqishga undadi.

Soliq nazorati sezilarli darajada kuchaytirildi, ayniqsa, raqamli vositalardan foydalangan holda. Rivojlangan ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt asosida ishlovchi monitoring tizimlari soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini samaraliroq aniqlashga yordam berdi. Soliq idoralari qurilish, mehmonxona va chakana savdo kabi norasmiy bandlik ko'p uchraydigan yuqori xavfli sohalarni nazorat qilishni kuchaytirdi. Qattiq jazo choralari va tez-tez o'tkaziladigan auditlar esa bizneslarni norasmiy iqtisodiyotda qolishdan qaytardi⁸.

Germaniyada raqamli soliq yig'ish tizimlari sezilarli rivojlandi. Elektron soliq hisobotlarini joriy etish bizneslarning operatsiyalarini yashirish imkoniyatlarini kamaytirdi, naqd pulsiz to'lovlarni rag'batlantirish esa iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirdi va norasmiy iqtisodiyotga olib boradigan yo'llarni chekladi. Markazlashtirilgan raqamli soliq infratuzilmasi soliq majburiyatlarini kuzatish va ijro etish samaradorligini oshirdi. Yuqorida keltirilgan Germaniya tajribasiga tayangan holda quyidagicha xulosa qilsak bo'ladi. O'zbekiston norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirmoqda, biroq Germaniyaning soliq imtiyozlari, raqamlashtirish va mehnat bozorini soddalashtirishga qaratilgan tajribasidan foydalanish bu jarayonni tezlashtirishga yordam berishi mumkin.⁹

Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya) tajribasi

Xufyona iqtisodiyotni qisqartirish ko'plab rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun dolzarb muammolardan biri ekanligi haqida atroflicha fikr yuritdik. Bu holat soliqlardan bo'yin tovlash, davlat budjeti tushumlarining kamayishi va iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazish kabi oqibatlariga olib keladi. Endi esa yana bir rivojlangan davlat – Janubiy Koreya tajribasi bilan yaqindan tanishib chiqaylik. Janubiy Koreya o'z vaqtida xufyona iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada kamaytirib, shaffof va samarali iqtisodiy tizimga o'tishga muvaffaq bo'lgan davlatlardan biridir. Shu asnoda, Janubiy Koreya tajribasi O'zbekiston uchun muhim saboq bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi qiyosiy-tahliliy ma'lumotlar ushbu ikki mamlakat iqtisodiyotlaridagi "xufyona iqtisodiyot" ulushini raqamlarda aks ettiradi.

2021-yilgi Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotning ulushi YAIMning 45-50% ni tashkil qiladi. 1980-yillarda xufyona iqtisodiyotning ulushi YAIMning 30% atrofida bo'lgan. Ammo 2000-yillarga kelib, u 10% dan pastga tushirildi.¹⁰ Janubiy Koreyada 1999-yilda elektron hisob-faktura tizimi joriy etilgandan so'ng, soliq tushumlari 15-20% ga oshdi. Ushbu tizim moliyaviy shaffoflikni oshirish va soliqlarning to'liq yig'ilishini ta'minlashga yordam berdi. O'zbekistonda ham raqamli to'lovlar sohasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilyapti. Respublika Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakatda raqamli to'lovlar hajmi 80 trillion so'mdan oshgan. Lekin shunga qaramay, naqd puldan foydalanish hali ham davlatimiz iqtisodiyotida keng tarqalgan, bu esa o'z navbatida, xufyona iqtisodiyot hajmini kamaytirishda muhim to'siq bo'lib kelmoqda.¹¹

Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti 20-asrning 70 yillaridan boshlab jadal rivojlana boshladi va davlat

7 Bundesministerium der Finanzen. (2025) Taxes: Information on Corporate Taxation. Bundesministerium der Finanzen, www.bundesfinanzministerium.de.

8 Kaufmann, D., Kraay, A., & Mastruzzi, M. (2010). Governance Matters: The Role of Institutions in Development. World Bank Policy Research Working Paper No. 5403. Retrieved from <https://info.worldbank.org/governance/wgi/>.

9 Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of Uzbekistan. (2023). Measures to Reduce the Shadow Economy in Uzbekistan. Retrieved from <https://mineconomy.gov.uz>.

10 World Bank. (2024). Uzbekistan Economic Snapshot. Retrieved from <https://www.worldbank.org/content/dam/infographics/780xany/2023/apr/presentations/UZBEKISTAN-Snapshot-SM2024-UZB.pdf>

11 International Monetary Fund (IMF) (2024). Korea Republic: Country Overview. Retrieved from <https://www.imf.org/en/Countries/KOR>



iqtisodiyotda rasmiy va norasmiy faoliyatni jiddiy nazoratga olishga kirishdi. Xususan, 2000-yillarda soliq qonunlarini buzgan tadbirkorlarga nisbatan qo'llaniladigan jarimalar sezilarli darajada oshirildi. Xususan, maksimal jarima YAIMning 2% gacha yetkazildi, bu esa bizneslarni soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lashga undashga yordam berdi. O'zbekistonda ham soliq nazorati kuchaytirilib, 2023-yilda Davlat soliq qo'mitasi noqonuniy daromadlarni yashirishga qarshi 12 mingdan ortiq tekshiruv o'tkazdi.¹² Ushbu tekshiruvlar natijasida 2 trillion so'mdan ortiq yashirilgan daromadlar aniqlanib, davlat byudjetiga qaytarildi.

Janubiy Koreyada soliq tushumlarining oshishi va rasmiy sektorning kengayishi natijasida davlat xizmatlariga yo'naltiriladigan mablag' 30% ga oshdi. Bu esa ijtimoiy dasturlar va infratuzilma rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakat fuqarolari soliqlarning davlat xizmatlarini yaxshilashdagi ahamiyatini tushunib yetishdi. O'zbekistonda esa hali bu borada to'liq anglash darajasi yetarli emas. 2023-yilda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma ko'ra, fuqarolarning 60% i soliqlarni to'lash davlat xizmatlarining yaxshilanishiga qanday ta'sir qilishini to'liq tushunmasliklarini bildirgan. Shuning uchun soliqlarning ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan ommaviy axborot kampaniyalari va ta'lim dasturlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.¹³

Koreya hukumati iqtisodiyotning rasmiy sektorini kengaytirish maqsadida raqamlashtirish, soliq islohoti, boshqaruvni yaxshilash va jamoatchilik xabardorligini oshirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirdi. O'zbekiston ham ushbu yondashuvlardan foydalanib, o'z iqtisodiy tizimini yanada shaffof va samarali qilishga erishishi mumkin.

Janubiy Koreyada xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda eng samarali vositalardan biri moliyaviy operatsiyalarni raqamlashtirish va soliqlarning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish bo'ldi. Hukumat elektron hisob-faktura tizimini yo'lga qo'yib, barcha moliyaviy operatsiyalarni shaffof va kuzatiladigan holga keltirdi. Bundan tashqari, naqd pulsiz hisob-kitoblarni rag'batlantirish maqsadida raqamli to'lov tizimlaridan foydalangan tadbirkorlar va iste'molchilarga soliq imtiyozlari taqdim etildi. Ushbu chora-tadbirlar soliq tushumlarini oshirib, norasmiy aylanmalarni kamaytirdi. O'zbekiston ham bu tajribadan foydalanib, raqamli to'lov tizimlarini kengaytirishi va barcha tadbirkorlik subyektlari uchun elektron hisob-faktura tizimini majburiy joriy qilishi lozim. Shuningdek, bizneslarni va aholini naqd pulsiz to'lovlarga o'tkazish uchun qo'shimcha rag'batlantiruvchi mexanizmlar yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Janubiy Koreyada soliq qonunchiligini qat'iy ijro etish xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda muhim rol o'ynadi. Hukumat soliqlarni tekshirish va monitoring qilish tizimini mustahkamladi, soliqlardan bo'yin tovlaganlarga nisbatan jiddiy jazolar qo'lladi. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar kuchaytirilib, noqonuniy kelishuvlar va poraxo'rlik imkoniyatlari sezilarli darajada kamaytirildi. O'zbekiston ham soliq tizimi shaffofligini oshirish uchun tekshiruvlar samaradorligini kuchaytirishi, soliqlardan bo'yin tovlagan tadbirkorlar uchun qat'iyroq jazolar joriy etishi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mustahkam choralar ko'rishi lozim. Soliq xizmati va boshqa tegishli davlat idoralarining samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy tartibni mustahkamlash mumkin.

Janubiy Koreya kichik va o'rta biznes subyektlarini rasmiy iqtisodiyotga jalb qilish uchun ularga qulay shart-sharoitlar yaratdi. Hukumat soliq tizimini soddalashtirib, kichik biznes egalari uchun soliq to'lash jarayonini yengillashtirdi. Xususan, 2024-yilda Janubiy Koreya hukumati startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun rekord darajadagi 3,7121 trillion von (taxminan 2,8 milliard AQSh dollari) mablag' ajratdi¹⁴. Shu bilan birga, kichik bizneslarni qo'llab-quvvatlash uchun 2024-yilda davlat va banklar tomonidan jami 76 trillion von (taxminan 57 milliard AQSh dollari) miqdorida moliyaviy yordam ko'rsatildi¹⁵. Bu chora-tadbirlar natijasida ko'plab tadbirkorlar xufyona iqtisodiyotdan chiqib, qonuniy faoliyat yuritishga o'tdi. O'zbekiston ham kichik va o'rta bizneslarni rasmiylashtirish uchun soliq jarayonlarini soddalashtirishi, rasmiy ishlaydigan tadbirkorlar uchun imtiyozlar taqdim etishi va qonuniy faoliyat yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirishi zarur. Bu chora-tadbirlar iqtisodiyotning rasmiy sektorini kengaytirishga yordam beradi.

Janubiy Koreyada jamoatchilik xabardorligini oshirish xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda muhim omil bo'ldi. Hukumat soliq to'lashning afzalliklari haqida keng targ'ibot ishlarini olib bordi. Ushbu kampaniyalar orqali soliq tushumlarining ahamiyati va davlat tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarning sifatiga ta'siri tushuntirildi. Bundan tashqari, iste'molchilarning qonuniy savdolarga jalb qilinishini ta'minlash uchun hukumat rasmiy kvitansiyalarni talab qilgan mijozlarga soliq imtiyozlari berdi. Bu esa fuqarolarni xufyona iqtisodiyotdan voz kechishga undaydi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda ham soliq madaniyatini shakllantirish, xufyona iqtisodiyotning zararlarini tushuntirish va aholini soliqlarni o'z vaqtida to'lashga undaydigan targ'ibot ishlarini

12 State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan. (2024, January 12). Annual results: Business development and tax revenues. Retrieved from <https://solik.uz/press-services/news/show/yil-yakunlari-biznes-rivoji-va-soliq-tushumlari>

13 World Bank (2024). Uzbekistan Development Policy Operations Press Release. Retrieved from <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/937073b92fe528c1207c041691e874eb-0080012022/original/DPO-5-PR-17-12-22-UZ.pdf>

14 "South Korea Ministry Allocates Record-Breaking \$2.8 Billion for Startups in 2024." Korea Tech Desk, 3 Jan. 2024, www.koreatechdesk.com/south-korea-ministry-allocates-record-breaking-2-8-billion-for-startups-in-2024/

15 Lee, Ji-hyun. "Gov't to Provide 76 Trillion Won in Support for Small Businesses in 2024." The Korea Times, 5 Jan. 2024, www.korea-times.co.kr/www/biz/2024/10/602_368842.html



kengaytirish kerak. Xususan, rasmiy kvitansiyalar berishni rag'batlantirish va iste'molchilarni qonuniy bitimlarga jalb etish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilishi ayni muddaodir.

Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, xufyona iqtisodiyotni qisqartirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda raqamlashtirish, soliq imtiyozlari, qonun ijrosini kuchaytirish va jamoatchilikni jalb qilish kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz ham ushbu yondashuvni o'ziga mos tarzda tatbiq etish orqali shaffof va barqaror iqtisodiyotga erishishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va soliqlarga rioya qilish madaniyatini shakllantirish orqali mamlakat xufyona iqtisodiy faoliyat ulushini sezilarli darajada qisqartirishi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga erishishi mumkin. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ko'lamini kamaytirish va soliq intizomini mustahkamlash yo'lida qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Quyidagi yo'nalishlar O'zbekiston sharoitida yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va soliq tizimini takomillashtirishda samarali bo'lishi mumkin. Soliq tizimini soddalashtirish va biznes muhitini takomillashtirish kerak. Kichik va o'rta biznes uchun soliq yukini optimallashtirish hamda rasmiy faoliyat yuritish jarayonlarini soddalashtirish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Soliq hisoboti va deklaratsiya topshirish jarayonlarini to'liq avtomatlashtirish, inson omilini kamaytirish orqali tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratish lozim. Masalan, avtomatlashtirilgan soliq tizimi orqali tadbirkorlar vaqt va mablag'larni tejab, asosiy biznes faoliyatiga e'tibor qaratishi mumkin bo'ladi. Bu esa iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish. Misol tariqasida, sun'iy intellekt asosida ishlovchi chat-botlar tadbirkorlarning soliq bo'yicha tezkor savollariga javob bera oladi, bu esa xizmat ko'rsatish jarayonini ancha soddalashtiradi. Elektron to'lov va hisob-kitob tizimlarini kengaytirish hamda naqd pulsiz iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish imkoniyati paydo bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada, mamlakatimizda, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar, soliq tizimidagi o'zgarishlar hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari tahlilining natijalari shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali kurashish uchun:

Birinchidan, soliq tizimini optimallashtirish va to'lov jarayonini yengillashtirish juda muhim rol o'ynaydi. Xulosalar shuni ko'rsatdiki, soliq yuklarni yuqoriligi tadbirkorlarni norasmiy sektorga o'tishga majbur qiladi. Xususan, 2023-yildan O'zbekistonda QQS stavkasi 15% dan 12% ga tushirilganidan so'ng, QQS tushumlari 1,3 barobarga oshgani bu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, Biznes muhitining shaffofligini oshirish va korrupsiyaga qarshi kurash tamoyili. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar xufyona iqtisodiyotni kamaytirishda kompleks yondashuvdan foydalanadi. Masalan, Germaniya soliqlarni kamaytirish va biznesni legallashtirishga rag'batlantirish orqali yashirin iqtisodiyotning salmog'ini kamaytirishga erishgan va bu 2023-yilda 10.2% ni tashkil etdi. Janubiy Koreya esa barcha savdo operatsiyalarining 98% ini raqamlashtirib, soliq tushumlarini katta hajmda oshirishga muvaffaq bo'lgan.

Uchinchidan, Naqd pulsiz iqtisodiyot, ya'ni raqamli to'lov tizimlari va elektron savdoning kengayishi, bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, naqd pul aylanishini qisqartirish va shu bilan birga, iqtisodiy jarayonlarni shaffolashtirishga yordam beradi. O'zbekistonda 2021-yildan boshlab majburiy joriy qilingan onlayn kassalar va elektron hisob-fakturalar natijasida yashirin aylanma sezilarli darajada kamaydi. 2022-yilda elektron hisob-faktura tizimi orqali 200 trillion so'm miqdorida shaffof tranzaksiyalar amalga oshirilgan.

To'rtinchidan, xalqaro standartlarga mos soliq monitoringi tizimini joriy etish masalasi. Sun'iy intellekt (AI) va Big Data texnologiyalaridan foydalanish soliq tushumlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, soliq yukini optimallashtirish, korrupsiyaga qarshi kurash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro ilg'or tajribalarni moslashtirish yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro tajribaga mos ravishda olib borilayotgani iqtisodiy shaffoflikni oshirish va soliq tushumlarini ko'paytirishda sezilarli natijalar berayotganini ko'rsatmoqda.

Ushbu rivojlangan davlatlar tajribasi, O'zbekiston uchun ham muhim bo'lib, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada samarali qilishga yordam beradi. Shunday qilib, xufyona iqtisodiyotni kamaytirish uchun kompleks choralar lozim. Soliq tizimining shaffofligi va soddaligi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, biznes muhitining yaxshilanishi hamda aholining soliq madaniyatini oshirish ushbu yo'nalishda asosiy omillar hisoblanadi. Agar bu islohotlar tizimli va izchil amalga oshirilsa, mamlakatimiz iqtisodiyoti yanada shaffof va barqarorlashadi, buning natijasida, rasmiy iqtisodiy faoliyatning ulushi sezilarli darajada o'sadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xaydarov B. Impact of intellectual property protection on the digital economy //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 163-174.
2. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, Xudayarov Rashid Tuychiyevich. (2022). Raqamli iqtisodiyot biznesni rejalashtirish. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 110–113. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/130>
3. Бахром Х.Х. Бизнесни режалаштириш тартиблари //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 12. – №. 2. – C. 139-142
4. Хайдаров Б. Иқтисодий ислохотларни ривожлантиришда камбағалликни қисқартириш – 2021. – №. 4. – C. 288-292
5. State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan. (2024, January 12). Annual results: Business development and tax revenues. <https://soliq.uz/press-services/news/show/yil-yakunlari-biznes-rivoji-va-soliq-tushumlari>
6. Transparency International. (2023). "Corruption Perceptions Index."
7. Eurasianet. (2021). Uzbekistan's Shadow Economy Accounts for Over One-Third of GDP. Retrieved from <https://eurasianet.org/uzbekistan-shadow-economy-responsible-for-generating-over-one-third-of-gdp>
8. International Monetary Fund (IMF). (2021). "Reducing the Shadow Economy through Institutional Reforms."
9. World Bank. (2019). "The Informal Economy: Causes, Consequences, and Policy Implications."
10. OECD. (2018). "Tax Transparency and Compliance in Emerging Markets."
11. World Bank. (2016). Can Tax Incentives for Electronic Payments Reduce the Shadow Economy? Retrieved from <https://documents.worldbank.org/curated/en/105841483990962599/pdf/WPS7936.pdf>
12. Schneider, F., & Enste, D. (2013). The Shadow Economy: An International Survey. Cambridge University Press.
13. Kaufmann, D. (2010). "Governance Matters: The Role of Institutions in Development. World Bank Policy Research Working Paper.
14. Loayza, N. V. (1997). "The Economics of the Informal Sector: A Simple Model and Some Empirical Evidence."
15. Tanzi, V. (1982). The Underground Economy in the United States and Abroad. Lexington Books.
16. Legislative Portal of Uzbekistan (LexUz). (2023, December 30). Law on the State Budget of the Republic of Uzbekistan for 2023. Retrieved from <https://lex.uz/docs/-6333246>
17. Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi. "Qaysi O'zbekiston hududlari yil boshidan buyon eng katta biznes faoliyatini ko'rsatdi?" Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi, 2025, <https://www.cer.uz/uz/news/news/which-regions-of-uzbekistan-have-shown-the-greatest-business-activity-since-the-beginning-of-the-year-infographics>.
18. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi. 2023-yil yakunlari: biznes rivoji va soliq tushumlari. 12 Jan. 2024, Government of Uzbekistan, <https://gov.uz/soliq/news/view/29418>.
19. Markaziy bank. Elektron hisob-faktura tizimi orqali amalga oshirilgan shaffof tranzaksiyalar. 2023, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, <https://cbu.uz/uz/publications/annual-report>.
20. B Sultanov, N Abdurazakova, O Shermatov, O Fayziev, A Jumanov, N.Dekhanova. The economic feasibility of cultivating intensive orchards. E3S Web of Conferences 284, 03006 (2021) TPACEE-2021 (<https://doi.org/10.1051/e3sconf/202128403006>)
21. I Yunusov, U Sangirova, U Ahmedov, O Fayziev, U Kholiyorov. Clustering of agriculture in the Republic of Uzbekistan. April 2023, E3S Web of Conferences 381, 02002 (2023) AQUACULTURE 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>